

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari	9
S.R.Mirzayeva	
Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva	
Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев	
Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе	23
D.M.Khoshimova	
"Boburnoma" asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova	
Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari	30
Z.T.Hakimova	
Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov	
Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova	
An analysis of "Baburnama" in comparison with its translation	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова	
Любовь в лирике Сапфо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ	42
N.Farmonov	
Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism	47
Я.И.Нишанов	
Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov	
Assotsiativ syujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva	
Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi	59
D.M.Abdullayeva	
Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va unda ota obrazi	67
M.T.Tolibova	
Isajon Sulton hikoyalarining syujet qurilishi	71
A.A.Abduraxmonov	
Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang	74
F.X.Nurdinova	
Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning "So'na" romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida)	77
F.X.Nurdinova	
Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva	
Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies	86
M.Y.Mamajonov	

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french.....	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymlar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri.....	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 159.9.07

MULOQOTNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI XUSUSIDA

О ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРИНЦИПАХ КОММУНИКАЦИИ

ON PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES OF COMMUNICATION

Mamajonov Muhammadjon Yusubjonovich 

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada muloqot hodisasining psixologik va psixolingvistik tamoyillari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda muloqotning til voqelanishidagi o'rnini, nutqiy birliklar va muloqot birliklarining farqlanishi, diskurs doirasida nutqning yuzaga chiqish xususiyatlari yoritilgan. Muallif muloqotni tilshunoslik va psixologiya kesishgan nuqtada talqin qilib, kommunikativ jarayonning ekstralingvistik, kommunikativ, kognitiv va lingvistik jihatlarini izchil asoslaydi.

Maqolada muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari, adresant va adresat munosabatlari, ichki va tashqi ta'sir birliklarining nutqiy jarayonga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Shuningdek, muloqot psixologiyasiga oid yetakchi nazariy qarashlar umumlashtirilib, muloqotning quyi, o'rta va yuqori darajalari (primitiv, manipulyativ, standartlashgan, konvensional, ishchan, o'yinli va ma'naviy darajalar) badiiy matnlar misolida ochib beriladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, muloqot insonning ruhiy holati, tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, muloqot jarayonida suhbatdosh shaxsini, vaziyatni va madaniy omillarni hisobga olish uning samaradorligini belgilaydi. Maqola psixolingvistika, nutq madaniyati va kommunikativ lingvistika yo'nalishlari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация

В данной статье рассматриваются психологические и психолингвистические принципы коммуникации в контексте функционирования языка и речевой деятельности. Анализируется роль общения как основной формы реализации языка, а также разграничение речевых и коммуникативных единиц в рамках дискурсивного подхода. Особое внимание уделяется экстралингвистическим, коммуникативным, когнитивным и собственно лингвистическим аспектам речевого взаимодействия.

В работе освещаются коммуникативная, интерактивная и перцептивная стороны общения, отношения адресанта и адресата, а также влияние внутренних и внешних факторов на процесс коммуникации. На основе теоретических источников и примеров из художественных текстов обоснована классификация уровней общения (примитивный, манипулятивный, стандартизированный, конвенциональный, деловой, игровой и духовный). Делается вывод о том, что эффективность коммуникации определяется психологическим состоянием участников, их когнитивными установками и культурным контекстом. Статья представляет интерес для исследований в области психолингвистики, теории коммуникации и культуры речи.

Abstract

This article examines the psychological and psycholinguistic principles of communication within the framework of language functioning and speech activity. The study analyzes communication as the primary means of language realization and emphasizes the distinction between speech units and communicative units in a discourse-based approach. Particular attention is paid to the extralinguistic, communicative, cognitive, and linguistic aspects of verbal interaction.

The paper discusses the communicative, interactive, and perceptive dimensions of communication, the relationship between the addresser and the addressee, and the influence of internal and external factors on the communication process. Based on theoretical sources and examples from literary texts, the study proposes a classification of communication levels (primitive, manipulative, standardized, conventional, business, playful, and spiritual). The findings indicate that communication effectiveness depends on the psychological state of the participants, their cognitive frameworks, and the cultural context. The article has both theoretical and practical significance for psycholinguistics, communication studies, and speech culture research.

Kalit so'zlar: muloqot, psixologik tamoyillar, psixolingvistika, adresant, adresat, diskurs, muloqot darajalari, nutqiy faoliyat.

Ключевые слова: коммуникация, психологические принципы, психолингвистика, адресант, адресат, дискурс, уровни общения, речевая деятельность.

TILSHUNOSLIK

Key words: *communication, psychological principles, psycholinguistics, addresser, addressee, discourse, levels of communication, speech activity.*

KIRISH

Tilning voqelanishi, namoyon bo'lishi muloqot yordamida amalga oshadi. Shu sababdan ham insonning lisoniy birliklardan to'g'ri va o'z imkoniyati doirasida to'liq foydalana olishi muloqotda yuzaga chiqadi. Bu esa muloqot borasida ko'plab izlanishlar, tadqiqotlar yaratishga, inson tilining jonli ifodasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni yanada kuchaytiradi. Shuning uchun ham nutqiy birliklarni muloqot birliklaridan farqlash zarurligi ta'kidlanadi: "Nutqiy birliklarni muloqot birliklaridan (nutqiy birlik va uning voqelanish sharoiti qurshovidan) farqlash zarurati strukturalizmida nutqiy birliklarni lisoniy birliklarni yashash sharoitidan ajratib tadqiq etish natijasida yuzaga keldi. Pragmatikada nutqiy birlikning voqelanishi diskurs – nutqiy muloqot jarayoni, kommunikantlarning o'zaro fikr almashinish va bir-biriga ta'sir o'tkazish faoliyati – doirasida o'rganiladi. Nutqni jarayon sifatida o'rganish esa faqat muloqot – so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikr almashish), savolga yarasha javob berish holatidagina amalga oshirilishi mumkin"[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muloqot ham tilshunoslik, ham psixologiyaning tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lib, S.Mo'minov o'z tadqiqotlarida *muloqot* so'zini "aloqa, fikr almashish" ma'nosida qo'llaydi[2].

M.Qurbonova esa muloqotda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish va o'z fikrini to'g'ri ifodalab berish zarur ekanini ta'kidlaydi: "Muloqot adresant (so'zlovchi, kommunikator) va adresat (tinglovchi, kommunikant) o'rtasida muayyan jarayonga bevosita yoki bilvosita ta'sir natijasida yuzaga keluvchi hodisa bo'lib, unda o'z fikrini to'g'ri ifodalab yetkazish mahoratidan tashqari, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yetakchi omil hisoblanadi"[3]

Muloqot jamiyatdagi inson hayotining zaruriy va o'ziga xos shartidir. Muloqotning asosini muammoli vaziyat tashkil etadi va u (muloqot) insonning muloqotga ehtiyoj sezishidan boshlanadi. Psixologik ma'noda muloqot doimo kommunikativ muammoni hal qilish jarayonidir. Biroq muloqot ikki tomonlama xarakterga ega bo'lganligi sababli, muloqot jarayonida nutqni idrok etish jarayonini belgilaydigan perseptiv vazifa ham hal qilinadi[4]

Har qanday kommunikativ harakatning to'rt komponenti yoki to'rt tomoni mavjud:

1) ekstralingvistik jihat, shu jumladan, konsituatsiya – aloqaning obyektiv mavjud bo'lgan ekstralingvistik holati: keng ma'noda muloqot va uning ishtirokchilari (ya'ni kim, nima, qayerda, qachon);

2) kommunikativ jihat – vaziyatning bir qismi bo'lgan, nutqda aylanib yuradigan va ma'lum bir kommunikativ aktga tegishli bo'lgan aniq ma'nolarni ifodalovchi kontekst;

3) kognitiv jihat – kommunikantning individual kognitiv makonlarining kesishish zonasi bo'lgan presuppozitsiya, shu jumladan, kommunikantning konsituatsiya haqidagi g'oyalari;

4) lingvistik jihatning o'zi – to'g'ridan to'g'ri nutq ishlab chiqarish mahsuli bo'lgan, kommunikantlar hosil qiladigan nutq[5].

Psixologlar esa muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshirilishini ta'kidlaydilar[6].

Shunga ko'ra, lisoniy muloqotning psixologik tuzilishini quyidagicha aks ettirish mumkin:



Bu o'rinda muloqotning kommunikativ jihati muloqotda ishtirok etayotgan so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida o'zaro axborot almashinuvida namoyon bo'ladi. Muloqotning interaktiv jihati muloqotda ishtirok etuvchilarning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida baholanishi mumkin. So'nggi – perseptiv jihat esa muloqotda ishtirok etuvchi so'zlovchi va tinglovchining o'zaro bir-birlarini tushunishi, idrok etishi bilan bog'liq.

G.Lassuel kommunikativ jarayonning besh unsurdan iborat bo'lgan quyidagi modelini taklif etadi:

- A. Kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda)?
- B. Nima (qanday axborot uzatilmoqda)?
- V. Qanday (axborot qanday yo'l bilan uzatilmoqda)?
- G. Kimga (axborot kimga yo'naltirilmoqda)?
- D. Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi)?[7]

Ko'plab nazariy adabiyotlarda, shuningdek, S.Mo'minov tadqiqotlarida muloqotda ishtirok etuvchi so'zlovchi adresant, kommunikator; tinglovchi esa adresat, kommunikan deb nomlanadi: "Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag'ishlangan ko'pgina adabiyotlardagi kabi bizning ishimizda ham so'zlovchi, ya'ni xabar beruvchi, gapiruvchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat, kommunikan deb, muloqotda bivosita (botinan) ishtirok etuvchi yoki muloqotga bivosita ta'sir etuvchi omillar esa ta'sir birliklari (qisqacha – TB) deb yuritiladi"[8]

Olim ta'sir birliklarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lib tahlil etadi:

1. Ichki ta'sir birliklari.
2. Tashqi ta'sir birliklari.

Ichki ta'sir birliklari sifatida adresant yoki adresat shaxsi bilan bevosita bog'liq belgi-xususiyatlar, ya'ni millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari, TBga yaqinlik darajasi; tashqi ta'sir birliklari sifatida muloqotga bivosita ta'sir etuvchi tashqi omillar – muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy muhit keltirilgan[9]

Sh.Alpanova nutq yaratuvchi sifatida ishtirok etayotgan subyektlarga nisbatan (so'zlovchi, yozuvchi, shoir, qo'shiqchi, baxshi, o'qituvchi, suxandon) – produtsient, nutqni qabul qilayotgan subyektlarga nisbatan retsipiyent terminini qo'llaydi[10].

"Muloqot psixologiyasi" kitobining mualliflari I.Iagnuk, I.Ponomaryov va A.Osipenko[11] muloqotning 7 ta tamoyilini keltirib o'tadilar:

TILSHUNOSLIK

1. Har qanday muloqotdan ko'zlangan maqsad bor. Bu maqsadlar muloqot orqali o'zligini topish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, munosabatlar qurish, axborot almashish, o'zgalarga ta'sir qilish bo'lishi mumkin.

Maqsadsiz muloqot mavjud emas va mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Chunki kimgadir nimanidir gapirish qandaydir maqsad asosida yuzaga keladi.

2. Muloqot davomiydir. Inson har qanday holatda ham muloqotga ehtiyoj sezadi, verbal va noverbal muloqot yordamida doimiy ravishda o'zaro xabar almashiladi.

3. Muloqot xabarlarini ongli ravishda turlicha bo'ladi. Bunda mualliflar ongli ravishda turli shakldagi muloqot xabarlarini uzatilishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Muloqotda uzatilayotgan xabarlar to'satdan paydo bo'lishi (og'riq bo'lganini ifodalash uchun "voy" deb yuborish, qo'rqqanda baqirib yuborish va b.), ma'lum qoliplarga asoslangan bo'lish (*Tuzni uzatib yubora olasizmi? – Marhamat! – Rahmat*) yoki individual shaxs va vaziyatga mos holda ongda yaratilishi mumkin.

4. Muloqot bog'langan bo'ladi. Har qanday muloqotda munosabatlarning ikki xil darajasi ifodalanadi: samimiylik va nazorat. Samimiylik muloqotda yoqimli so'zlardan foydalanish, shunga mos tabiiy noverbal vositalarni qo'llashni anglatadi. Nazorat esa muloqotda bir ishtirokchining ikkinchisiga nisbatan yuqori bo'lishga, muloqotda nazorat o'rnatishga intilishidir.

5. Muloqotda madaniyatning ta'siri bor. Xabarlarining yaratilishi, uzatilishi va qabul qilinishi muloqot ishtirokchilarining madaniy xususiyatlari bilan bog'liq. Muloqotda suhbatdoshning madaniyatini inobatga olmagan holda suhbatlashish muloqotning muvaffaqiyatsiz kechishi yoki umuman uzilib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

6. Muloqot xulqiga xos qonun-qoidalar mavjud. To'g'riso'zlik, birdamlik, adolatlilik, hurmat, mas'uliyat muloqot xulqiga xos qonun-qoidalar sifatida keltirilgan.

7. Muloqot o'rganiladi, o'zlashtiriladi. Muloqot ham boshqa ko'nikmalar singari o'rganilishi, rivojlantirilishi mumkin.

Psixolog S. Rubinshteyn fikricha, "...kundalik hayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo'ljal olamiz. Biz go'yoki suhbatdoshning tashqi ma'lumotlari mohiyatini "o'qib olamiz", shu tariqa matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunni aniqlaymiz. Bu jarayon tez sodir bo'ladi, chunki atrofdagilar bilan muloqotda ma'lum darajada ularning fe'l-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi"[12]. Demak, muloqot keng qamrovli hodisa bo'lib, lisoniy va psixologik tamoyillarga asoslanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog'liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi.

Demak, ruhga ta'sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi[13]. Nutq va tafakkurning bog'liqligini hech bir tilshunos inkor etmaydi. Xuddi shunday tafakkur va ruhiyatning o'zaro bog'liqligi ham nutq va ruhiyatning o'zaro bog'lanishini ko'rsatadi. Tafakkur yordamida idrok etilgan va ruhiyatda his etilgan holatlar insonning tanasiga, ya'ni nutq hosil bo'lishiga ta'sir etadi. Bu esa insonga xos muloqotni psixolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Psixolingvistika matnni yaratish va uni tushunish jarayonini, ya'ni til birliklarini psixik fenomen sifatida o'rganadi. So'zlovchi va tinglovchi, muallif va o'quvchining ruhiy olami, muayyan holati, faoliyat shakli ular tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Nutqiy faoliyat (nutqiy reaksiya, nutqiy akt) vaziyat omili, yanada aniqroq aytilsa, inson omilining muhimligini belgilaydi[14]. Muloqotni aynan psixolingvistik jihatdan tadqiq etish nutqiy faoliyatning inson omili bilan, inson ruhiy va psixik holati bog'liq tomonlarini yoritish imkonini beradi.

Kishilararo muloqot ham bamisoli yo'l harakatiga o'xshaydi. Bilimli, farosatli, kamtarin kishilar hech qachon muloqot jarayonida mulzam bo'lib qolmaydilar – muloqot qoidalarini buzmaydilar. Masalan, madaniyatli kishi o'zi bilmagan, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan narsa haqida gapirmaydi, hukm chiqarmaydi yoki muhokama qilinayotgan suhbat mavzusi bo'lgan masala haqida zarur bilimga ega bo'lsagina suhbatga aralashadi. Muloqotda farosat muhim rol o'ynaydi. U madaniylik unsurlarining tarkibiy qismi bo'lsa-da, asosiy o'rinda turadi. Ular sirasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, farosatli kishi bilmasdan gapirmaydi, yuksak farosat kishini kamtarin qilib qo'yadi.

Muloqot jarayonida bilim uch ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- Muloqot obyekti haqidagi bilim;
- Muloqot qilayotgan kishi haqidagi bilim;
- Muloqot vositasi (til) bo'yicha bilim.

Mana shu uch sifatdan biri bo'lmasa, muloqot sifatli kechmaydi, hamsuhbatda suhbatdoshning madaniy shaxs ekani haqida tasavvur paydo bo'lmaydi[15].

Psixologlar tomonidan muloqotning uch darajasi borligi farqlanadi. Bular quyi, o'rta va yuqori darajalar bo'lib, adresant va adresatning suhbatdoshiga va muloqotga bo'lgan qiziqishi, o'zaro munosabatga kirishish uchun ochiqlik darajasi inobatga olinadi[16].

Muloqotning psixologik jihatdan darajalari quyidagi jadvalda aks etgan:

Quyi daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja
Primitiv daraja	Konvensional daraja	Ishchan daraja
Manipulyativ daraja		O'yinli daraja
Standartlashgan daraja		Ma'naviy daraja

Muloqotning quyi darajalari sifatida primitiv daraja, manipulyativ daraja va standartlashgan daraja farqlanadi. Primitiv darajada suhbatdoshga qiziqish bildirilmaydi, unga xuddi buyumga qaragandek munosabatda bo'linadi. Agar suhbatdosh buyum singari kerak bo'lsa, uni egallashga harakat qilinadi, keraksiz bo'sa, uni ulotqirib tashlashga harakat qilinadi.

Bir tomonda do'xtirlar. Bir tomonda yarim yalang'och "prizivnik"lar.

Endi senlar odam emas, hammang bir xil "prizivnik"san.

Quloq solib tursang, antiqa savol-javoblarni eshitasan...

—Shikoyating bormi?

—Bor. Boshim og'riydi. Kechalari uxlamay chiqaman, do'xtir!

—Mening boshim yorilib ketay deyapti! O't! Yaroqli!

—Sen nima deysan?

—Jigarim kasal. Sariq bo'lganman.

—Qachon?

—Uch yil avval.

—Men yaqinda gepatit bo'lib, gospitaldan chiqdim. Yaroqli! Sleduyushiy!... (O'. Hoshimov "Tushda kechgan umrlar", 75-bet)

Primitiv darajadagi muloqotda, asosan, so'zlovchi o'z fikrini hech qanday qarshiliklarsiz o'tkaza olishi xarakterlidir. Yuqoridagi muloqotda shifokor ko'rikka kelgan chaqiriluvchilarni tuzuk-quruq tinglamaydi ham, ularning kasalliklariga e'tibor ham bermaydi. Asosiy maqsad – asarda ta'kidlanganidek, "planni, odam planini to'ldirish". Shu sababdan ham shifokorning chaqiriluvchilarga buyumdek muomala qilishi primitiv darajadagi muloqotni ko'rsatadi.

Manipulyativ darajada suhbatdoshning zaif tomonlariga qiziqish bildiriladi, chunki bunda muloqot ishtirokchisi uchun suhbatdosh raqibdek ko'rinadi, uni yengishga harakat qiladi. Bunda manipulyator ongli yoxud ongsiz ravishda o'zining manfaatlarini ko'zlagan holda suhbatdoshini yengishga, uning ustidan g'alaba qozonishga intiladi. Bunda, albatta, psixologik ta'sir etish bilan bir qatorda, lisoniy vositalar ham ishtirok etadi. "Tushda kechgan umrlar" asarida Komissar va tergovchining suhbatida komissarning tergovchini yengishga harakat qilishi, o'z fikrlarini uqtirishga intilishi muloqotning manipulyativ darajasiga misoldir:

— Guvohlik berishicha, tuni bilan uyida bo'lgan.

—Xotin kishining makri qirq eshakka yuk bo'ladi! Ertalab sutga chiqqan emish! O'sha kuni sutga chiqmagan! Chiqsa, men ko'rardim, men!

—Aniqmi shu gap?

—Men noaniq gapirmayman, kollega! Bundan tashqari... Surishtirib ko'rdingmi? Shomatov uyni qanday qilib oldi ekan?

—O'rtoq Komissar... O'lgan odamni malomat qilish...

—Men uchun o'lik-tirikning ahamiyati yo'q. Senga ham shuni maslahat beraman.

—Shomatov Afg'onistonda jang qilgan. Navbatsiz uy olishga haqqi bor!

TILSHUNOSLIK

Jang qilganmish! E'tiboringiz uchun, o'rtoq tergovchi, gorispolkomning uy taqsimoti komissiyasida kamina ham borlar! Bir majlisda bu bolaning o'zini tutishini ko'rib, aniq xulosaga kelganman. Uy nari tursin, molxonani ham ravo ko'rib bo'lmasdi unga... (O'. Hoshimov, "Tushda kechgan umrlar", 76-bet)

Komissarning o'zining Shomatov haqidagi fikrlarini tergovchiga uqtirishga urinishi takrorlar orqali (*Chiqsa, men ko'rardim, men!*), suhbatdoshning gapini bo'lish, tinglashni istamaslik orqali (*O'rtoq Komissar... O'lgan odamni malomat qilish... – Men uchun o'lik-tirikning ahamiyati yo'q. Senga ham shuni maslahat beraman*), kesatliqlar orqali (*Jang qilganmish!*), salbiy bo'yoqdor lisoniy vositalar orqali (*Uy nari tursin, molxonani ham ravo ko'rib bo'lmasdi unga...*) ifodalanadi. Komissarga tergovchining fikrlari ham, Shomatovning aslida qanday inson bo'lgani ham muhim emas, muhimi – o'zining haqligini, tergovchining o'zi kabi yaxshi mutaxassis emasligini isbotlash. Aynan shu maqsadni amalga oshirish manipulyativ muloqotni yuzaga keltiradi.

Standartlashgan darajada suhbatdoshga nisbatan ma'lum darajada qiziqish mavjud bo'ladi. Bu darajada muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'zaro "niqob"larga asoslangan muloqot amalga oshadi. Muloqotchilar "men sizga tegmayman, siz ham menga tegmang" qabilidagi befarqlik niqobi, "menga tegib ko'ring-chi", qabilidagi qo'rqituvchi niqob, "menga tegmang, men juda kuchsizman" qabilidagi zaif niqob, "men bilan muloqot qilish befoyda, men hech narsani bilmayman" qabilidagi o'zini ahmoqdek ko'rsatish maqsad qilingan niqoblar yordamida o'zaro muloqot qiladilar.

"E.Bern tavsiyasiga ko'ra, muloqotning dastlabki o'n soniyasida "tinglovchi" yoki yangi odam muloqot uchun rol tanlaguncha suhbatdosh diqqatli bo'lishi kerak. Chunki u hali tabiiy holda bo'ladi. Lekin uchrashuvni oldindan bilgan va bunga tayyorgarlik ko'rgan tajribali "suhbatdosh" bilan aloqa qilinganda, bu eslatmaning qiymati pasayadi, birinchi soniyalardan o'z mo'ljallagan maqsadiga mos "niqob"ni kiyib olgan bo'ladi. Demak, bu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, insonlar doimo samimiy, o'z tabiatiga monand ravishda nutq tuzmaydi. Ularning hayot sahnasidagi "rollar"iga qarab ham o'z nutqlarini ataylab o'zgartirishi yoki turli holat va manfaatga ko'ra o'zgartirishini kuzatishimiz mumkin. Bu holat, albatta, shaxsiy yoki guruhga oid manfaat bilan bog'lanishi mumkin. Shaxsiy manfaat yuzasidan bo'lgan nutqiy "rollar"da insonlar u qadar katta kuch sarflamay niyatlariga yetishi mumkin, raqibini yo "o'ljasini" osonlikcha aldashi va tuzog'iga ilintirishi mumkin. Ko'pchilik manfaatiga daxldor sahnalarda esa manipulyator yoki "hukm o'tkazuvchi"ga kattaroq bilim va kuch kerak bo'ladi. Aytaylik, siyosiy masalalarda yoki diplomatik munosabatlarda va ma'lum korxona va tashkilot foydasiga tuziladigan bitim oldidan bo'ladigan muloqotlarda "o'yin ishtirokchilari" ancha bilimli va nutqiy taktik tayyorgarligi yuqori bo'lgan va tashqaridan ancha og'ir-vazmin ko'rinadigan, aslida esa, ichidan pishgan, quv, aqlli insonlar jamoasidan tashkil topgan bo'ladi"[17].

Muloqotning o'rta darajasi konvensional daraja deb nomlanadi, bu darajada suhbatdoshga nisbatan ochiqlik ko'zga tashlanadi. Bu ochiqlik faqat suhbat ro'y berayotgan vaziyat uchungina xosligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bunday muloqot suhbatdosh uchun qayg'urish, uning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish asosida yuzaga keladigan muloqotdir.

Ota shu savol bilan yo'qlama pakkasiga qarab yurdi. Kelib, ne ko'z bilan ko'rsinki, kutish bo'limida, odamlar orasida Erboy ota turardi.

– Erboy! – esi og'ayozdi otaning.

– Po'lat! – Quchoq'ini ochib kela boshladi Erboy. Ota nima qilishini, nima deyishini bilmay qoldi. Erboy ota kelib, Po'lat otani mahkam quchoqlab, ikki yuzidan cho'lpillatib o'pdi, keyin yuzlarida yosh miltillab azaliy raqibining yuz-ko'zlariga hasrat-la boqdi. – Omonmisan, birodar? Bormisan?... Mana, oldingga bosh egib keldim, nihoyat!.. Meni kechir! Kechir, xom sut emgan gumroh hamqishlog'ingni, sinfdoshingni! Oldingda gunohkorman! Seni, Yog'duni, oilangni, o'zimning oilamni... hammalaringni hayotlaringni zaharladim. Kechir, Po'lat, mendek zaharli ilonni kechir!.. – Erboy ota Po'lat otaning ikki qo'lidan mahkam tutgan ko'yi, gavdasi bilan pastga egilib, yig'lab yubordi...

(U.Hamdami, "Ota", 168-bet)

Asarda Erboy ota va Po'lat ota azaldan raqib, bir-biriga dushman sifatida keltirilgan. Erboy Po'lat bilan muloqotda hech qachon unga achinish, qayg'urish bilan qaramagan. Lekin aynan yuqoridagi vaziyatda ochiqlik bilan, ro'y-rost so'zlab, aybini tan olib, konvensional darajada muloqotga kirishadi. Bu daraja bunday muloqot faqat ma'lum vaziyatlar uchungina xosligi,

hamdardlikni, samimiylikni ifodalash faqat o'sha nutq vaziyatidagina amalga oshishi bilan xarakterlanadi.

Muloqotning ishchan darajasi yuqori darajalardan birinchisi hisoblanadi. Bu darajada suhbatdoshning ishchanlik xususiyatlariga qiziqish mavjud bo'ladi. Ishchan darajada muloqotga kirishish orqali suhbatdoshlar o'zaro manfaatga erishishlari ko'zda tutiladi. Biznes hamkorlik bo'yicha muzokaralar aynan shu darajadagi muloqotga misol bo'la oladi.

Muloqotning yuqori darajalaridan yana biri o'yinli daraja hisoblanib, bunda o'zaro bir-birini yoqtirishga asoslangan, yomon maqsadlar ko'zlanmaydigan muloqot amalga oshiriladi.

Ma'naviy daraja eng yuqori darajadagi muloqot bo'lib, bu turdagi muloqotda suhbatdosh yuksak hurmatga, ehtiromga sazovor shaxs sifatida baholanadi va muloqotga kirishiladi.

... Bu hammasi Boburda g'alati bir zavq uyg'otdi. U sham yonidagi to'q qizil naqshlarni Xonzoda begimga ko'rsatib:

– Islimi gulxan shumi? – deb so'radi.

Xonzoda begim bir ukasiga, bir naqshga qaradi-yu, sho'x jilmaydi:

– Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, ayturmen.

Bobur ham kulimsirab:

– Kechdim, aytingiz, – dedi.

Xonzoda begim o'ngga qayrilib, eshik tepasidagi qip-qizil naqshlarni ko'rsatdi.

– Islimi gulxan mana bu. Siz naqshi lolani bunga o'xshatmishsiz, amirzodam (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar", 93-b.).

O'zidan yoshi kichik bo'lsa ham, Xonzoda begimning ukasiga o'ta ehtirom bilan so'zlashi, sizlab gapirishi, xatosini ham bildirmaslikka harakat qilishi muloqotning ma'naviy darajasini ko'rsatadi. Suhbatdoshni ranjitmay, uning ko'ngliga qarab, hurmat va izzat bilan muloqotga kirishish aynan muloqotning ma'naviy darajasi uchun xos sanaladi.

XULOSA

Ko'rinadiki, muloqotning quyi, o'rta va yuqori darajalari muloqotda ishtirok etuvchilarning suhbatga ruhiy tayyorgarliklari, qo'llanadigan konstruksiyalar, lisoniy vositalarning tanlanishi orqali namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, har qanday muloqotga kirishishdan avval suhbatdoshning kim ekanligi, yoshi, mavqeyi kabi ichki va tashqi ta'sir birliklariga e'tibor qaratish muloqotning muvaffaqiyatli kechishi yoxud tamoman uzilib qolishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тоирова Г. Нутқий мулоқот ситуатив прагматик система сифатида: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.11.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.7.
3. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихоллингвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2014. – Б.24.
4. Шапацева М.Х. Коммуникация в зеркале психоллингвистики// <https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikatsiya-v-zerkale-psiholingvistiki> (murojaat sanasi: 11.01.2024).
5. Красных В.В. Основы психоллингвистики и теории коммуникации. Лекционный курс. – М.: Гнозис, 2001. – 269 с.
6. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent, 2006. – B.5.
7. Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ birlikлари воситасида акс этиши: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2018. – Б.33.
8. Iaguiuk I., Ponomaryov I., Osypenko A.A. Communication Psychology. – Kharkiv, 2016. – 156 p.// <https://www.researchgate.net>.
9. Рубинштейн С. Л. Принципы и пути развития психологии [Текст] / Акад. наук СССР. Ин-т философии. – Москва, 1959. – С.180
10. Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентриқ тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022. – Б.127.
11. Raupova L. Nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019. – B.11.
12. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent, 2006. – B.101.
13. Каримова Ф. Мулоқот матнидаги сўз ўйинлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2024. – №3. – Б.108.